

Yilning eng yaxshi tarbiyachilari aniqlandi

Toshkent viloyati Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglar o'rtasida "Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" kasbiy ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Mazkur soha xodimlarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Xususan, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan tajribali va o'z ishiga sidqidildan yondashayotgan tarbiyachi mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida "Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" kasbiy ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinmoqda. Uning Toshkent viloyati bosqichi ham qiziqarli shartlar asosida tashkil etildi.

Joriy yilning 1-25 iyun kunlari mazkur ko'rik-tanlovning tuman-shahar bosqichlari bo'lib o'tgan edi. Unda 1 ming 543 nafar tarbiyachi-pedagog ishtirok etib, 25 nafari navbatdagi bosqichga yo'llanma olishgan.

"Yilning eng yaxshi tarbiyachisi" kasbiy ko'rik-tanlovi nizomiga ko'ra, unda 3 yildan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari qatnashadi.

Maqsad — yuqori malakali tarbiyachilarni aniqlash va rag'batlantirish, ularning pedagogik mahorati va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish, pedagogik faoliyatining nufuzini yanada oshirishdir. Bu orqali kasbiy faoliyatida sog'lom raqobat va ijodkorlik muhitini yaratish ularning kelgusi ish faoliyatiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan tanlov "Kasbiy mahorat, ijodkorlik, innovatsiya" shiori ostida bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar 5 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdi.

YAkuniy natijalar bo'yicha "Eng yaxshi metodist tarbiyachi" nominatsiyasi bo'yicha I darajali diplom Chinoz tumani 20-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi M. Suleymanovaga nasib etdi.

Shuningdek, "Eng yaxshi ijodkor tarbiyachi" nominatsiya bo'yicha Chirchiq shahar 17-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi R. Anvarova, "Innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llaydigan eng yaxshi tarbiyachi" nominatsiya bo'yicha Nurafshon shahar 20-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi R. Mustafina, "Mohir qo'llar ustasi" nominatsiya bo'yicha Ohangaron shahar 2-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi M. Jijanboeva, "Eng yaxshi g'oya muallifi" nominatsiya bo'yicha esa Parkent tumani 8-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi U. Raximberdievalar ham I darajali diplom bilan taqdirlandi.

E'tiborlisi, ushbu tanlovning Respublika bosqichida sovrindor bo'lgan tarbiyachilar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishiga test sinovlarisiz va kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz davlat grantlari asosida o'qishga kirish imtiyoziga ega bo'ladi.

YILNING ENG YAXSHI TARBIYACHISI
KASBIY KO'RIK TANLOVI TOSHKENT VILOYATI BOSQICHI

**KASBIY MAHORAT,
IJODKORLIK, INNOVATSIYA**

**ENG YAXSHI
METODIST
TARBIYACHI**

**ENG YAXSHI
G'OYA
MUALLIFI**

**ENG YAXSHI
IJODKOR
TARBIYACHI**

**MOHIR
QO'L
USTASI**

**INNOVATSIYA
TEXNOLOGIYALARINI
QO'LLAYDIGAN
ENGLIQ
TARBIYACHI**

**TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI
AXBOROT XIZMATI**



YILNING ENG YAXSHI TARBIYACHISI **KASBIY KO'RIK TANLOVI TOSHKENT VILOYATI BOSQICHI**



**KASBIY MAHORAT,
IJODKORLIK, INNOVATSIYA**

**ENG YAXSHI
METODIST
TARBIYACHI**

**ENG YAXSHI
G'OYA
MUALLIFI**

**ENG YAXSHI
IJODKOR
TARBIYACHI**

**INNOVATSION VA
TEXNOLOGIYALARINI
ENG YAXSHI TARBIYACHISI**



TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI
AXBOROT XIZMATI



YILNING ENG YAXSHI TARBIYACHISI
KASBIY KO'RIK TANLOVI TOSHKENT VILOYATI BOSQIHI

**KASBIY MAHORAT,
IJODKORLIK, INNOVATSIYA**

**ENG YAXSHI
METODIST
TARBIYACHI**

**ENG YAXSHI
IJODKOR
TARBIYACHI**

**ENG YAXSHI
G'OYA
MUALLIFI**

**IR
L
ASI**

**INNOVATSIC
TEKNOLOGIYALA
ENG YAXSHI
IGAN**


TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI
AXBOROT XIZMATI